



OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Umarova Nilufar Abdukaxor qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0009-0646-4184

n42361502@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda xorijiy davlatlar tajribasi, oziq-ovqat sanoati korxonalaridagi innovatsion yangiliklar, mamlakatizmida oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, mavjud muammolar, olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va ularning natijalari, statistik tahlillar hamda innovatsion yechimlarni amaliyotga tadbiiq etishga qaratilgan bir qator masalalar ilmiy jihatdan bayon etilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat sanoati korxonalari, raqobatbardoshlik, innovatsiya, xorijiy tajriba, ilmiy tadqiqotlar, oziq-ovqat sanoatidagi muammolar, yangi islohotlar, innovatsion yechimlar.

ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Умарова Нилуфар Абдукахоровна

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация: В данной статье рассмотрен опыт зарубежных стран по повышению конкурентоспособности предприятий пищевой промышленности, инновационные новости на предприятиях пищевой промышленности, реформы, направленные на развитие предприятий пищевой промышленности в условиях национализма, существующие проблемы, научные исследования и их результаты, статистический анализ и в статье представлена реализация инновационных решений, научно описан ряд вопросов.

Ключевые слова: предприятия пищевой промышленности, конкурентоспособность, инновации, зарубежный опыт, научные исследования, проблемы пищевой промышленности, новые реформы, инновационные решения.

EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN INCREASING COMPETITIVENESS IN FOOD INDUSTRY ENTERPRISES

Umarova Nilufar Abdukakhor kizi

Tashkent State University of Economics

Annotation: In this article, the experience of foreign countries in increasing the competitiveness of food industry enterprises, innovative news in food industry enterprises, reforms aimed at the development of food industry enterprises in nationalism, existing problems, scientific researches and their results, statistical analyzes and the implementation of innovative solutions are presented in this article. a number of issues are scientifically described.

Keywords: food industry enterprises, competitiveness, innovation, foreign experience, scientific research, problems in the food industry, new reforms, innovative solutions.

Kirish.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish hozirgi kunda zamon talabiga aylanib borayotgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lib, bu borada rivojlangan davlatlardagi xorijiy tajribalarni o'rganish muhim sanaladi.

Chunki, xorijiy davlatlarda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish borasida yangi innovatsion yangiliklar amaliyotga tatbiq etib kelinmoqda. Jumladan, jahon tajribasiga qaraydigan bo'lsak, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni yildan-yilga ortib borayotganligi, ushbu sohani barqaror darajada rivojlanishiga hamda raqobatbardoshligini oshirishga yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirib bermoqda.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshligini oshirish korxonalarida yangi imkoniyatlarni amalga oshirishga zamin yaratib beradi. Jumladan raqobatbardoshlikni oshirish korxonalaridagi ishlab chiqarish va qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirishga, oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirishga, mahsulot turlarini oshirishga, yangi mahsulotlarni joriy etishga, iqtisodiy samaradorlikni barqarorlashishiga, infratuzilmalarni takomillashtirishga, korxonalararo iqtisodiy raqobatni kuchaytirishga, boshqaruv strategiyasini rivojlanishiga, korxonaning ichki resurslarini tajamkorligiga, yangi texnologiyalarni tatbiq etilishiga, korxonalarni iqtisodiy hamkorlik jihatidan birlashishiga, xarajatlarni minimallashtirishga hamda foydani maksimallashtirishga xizmat qiladi. Bundan ko'rinadiki, raqobatbardoshlikni oshirish oziq-ovqat sanoatki korxonalaridagi yangi imkoniyatlarni yuzaga kelishini ta'minlaydi. Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasida aynan yuqoridagi iqtisodiy jarayonlar raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan jarayonlar sifatida baholanadi.

Bugungi kunda oziq-ovqat sanoati sohasi rivojlangan xorijiy davlatlar juda ham ko'p bo'lib, eng yetakchilari sifatida quyidagi davlatlarning tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, AQSH, Xitoy, Brazilya, Yaponiya, Koreya, Hindiston, Yevropa davlatlari hamda Rossiya singari dunyodagi yetakchi davlatlar tajribasida oziq-ovqat sanoati sohasi eng rivojlangan ko'rsatkichlarga ega bo'lgan soha hisoblanadi. Ushbu davlatlarning tajribasini o'rganish orqali oziq-ovqat sanoati sohasidagi yangi tajribalar va yutuqlarni, raqobatbardosh mahsulotlar va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni, xalqaro innovatsion yondashuvlar va amaliyotlarni hamda yangi yechimlarni amaliyotga keng joriy etish imkoniyatlari yuzaga keladi. Natijada esa, oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlik rivojlanib boradi. Shuning uchun ham yuqoridagi rivojlangan davlatlarning yangi tajribalarini o'rganish raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Dunyoning yetakchi xorijlik olimlardan Liu, Wang (2022), Lukiewska, Juchniewicz (2021), Nyamakwere, Esposito, Dzama, Raffrenato va Ogunyemi (Wang 2022) singari olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish, xorijiy tajribalarni qo'llash va amaliyotga keng tatbiq etish, innovatsiyalarni imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalariga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar ishlari olib borilgan.

Xorijiy tadqiqotchi olimlar sanoat sohasini, jumladan, oziq-ovqat sanoati faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga hamda soha faoliyatini vertikal va gorizontal klasterli yondashuv asosida rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

MDH olimlaridan Krutikov, Yakunina (2011), Orzuev (2011), I.Kuprina, A.Izmaylov, A.Ergeshova, T.Sabatkoev, T.Matveeva (Lukiewska, Juchniewicz, 2021) kabi olimlar tomonidan oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning yangi imkoniyatlari va iqtisodiy samaradorlikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari tadqiq etilgan.

Respublikamizdagi iqtisodchi olimlardan esa Salimov, Yusupov (2014), Burxanov (2018), Shodmonov, G'afurov (2005), Qobilov (2013) va Xakimov (2022) larning ilmiy tadqiqot ishlarida oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulotlar sifatini oshirish, sanoat korxonalarida faoliyatini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, raqobat munosabtlarini tartibga

solish, oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish, oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, oziq-ovqat sanoati korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirish, agrosanoat tizimini klaster tizimi asosida boshqarish hamda sutni qayta ishlash korxonalarini faoliyatini takomillashtirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Yuqorida keltirilgan xorijiy va maxalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida asosan oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Biroq, tadqiqot ishlarida oziq-ovqat sanoati korxonalarini ichida pishloq mahsulotlarini qayta ishlash korxonalaridagi raqobatbardoshlikni oshirish va uni takomillashtirishga qaratilgan xorijiy tajribalar doir masalalar yoritilmagan va unga doir ilmiy tadqiqot ishlari bajarilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada muammoni o'rganish uchun mantiqiy fikrlash, tizimli yondoshuv, iqtisodiy taqqoslash, statistik tahlil, kuzatuv va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Mavjud metodologik yondashuvlarga tayangan holda, maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish asosida olib borilgan ilmiy natijalardan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ma'lumki, Muhtaram Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizdagi oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish va xorijiy yangi tajribalarni amaliyotga keng tatbiq etish borasida bir qator yangi Farmonlar va startegiyalar qabul qilinib, mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni (Farmon, 2022) doirasida oziq-ovqat sanoati dasturi qabul qilindi. Ushbu dasturga ko'ra, quyidagi bir qator vazifalar belgilandi. Jumladan, oziq-ovqat xomashyo bazasini kengaytirish va organik mahsulotlar hajmini bosqichma-bosqich oshirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, bunda, 2022 yilda Davlat investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 440 mln AQSH dollari bo'lgan 50 ta yirik loyihani amalga oshirish, 2026 yilga borib oziq-ovqat mahsulotlari hajmini 7,4 mln tonnaga, qayta ishlash darajasini sut bo'yicha 32 foiz, go'sht - 25 foizga, meva-sabzavot - 28 foizga yetkazish vazifalari belgilab berildi. Bundan ko'rinadiki, mamlakatimizda qabul qilingan oziq-ovqat sanoati dasturini rivojlantirish orqali oziq-ovqat sanoati korxonalarida yildan-yilga raqobatbardoshlikni oshirish, xorijiy tajribalarni o'rganish, yangi innovatsion echimlarni amaliyotga keng tatbiq etish oziq-ovqat sanoati korxonalarida yangi imkoniyatlarni yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi oziq-ovqat sanoati korxonalarida bir qator yutuqlar bilan birgalikda oziq-ovqat sanoati korxonalarida dozarb ahamiyatga ega bo'lgan muammolar ham mavjud bo'lib, ular quyidagicha izohlanadi:

- oziq-ovqat sanoati korxonalarida zamonaviy xorijiy tajribalarni yetishmasligi;
- innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish amaliyoti keng tatbiq etilmaganligi;
- xorijiy xamkorlar bilan iqtisodiy kelishuvga doir bo'lgan shartnomlarni rivojlanmaganligi;
- kadrlarni xorijda malaka oshirish imkoniyatlarini keng joriy etilmaganligi;
- kadrlar almashinuvi dasturlarini mavjud emasligi;
- raqobatbardosh korxonalar faoliyatini baholovchi benchmarking faoliyatini yo'lga qo'yilmaganligi;
- ilmiy tadqiqot ishlaridan samarali foydalanish va ularni o'rganib chiqishga doir ishlarni tashkil etilmaganligi;

- iqtisodchi olimlar bilan hamkorlik qiladigan yangi loyihalarni ishlab chiqilmaganligi hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar sanaladi. Ularni bartaraf etish uchun jahon tabirbasini o'rganish va mamlakatimizga keng tatbiq etish yangi yechimlarni yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Xorijiy davlatlar tajribasidan asosan Yevropa davlatlarining tajribalari o'rganib chiqildi. Chunki, Yevropa davlatlaridagi oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlik darajasi yuqori bo'lib, ular har yili xalqaro miqyosidagi reytinglardan biri bo'lgan Global raqobatbardoshlik xalqaro indeksi tomonidan baholanib boriladi. Natijada esa raqobatbardoshlik mezonlari rivojlanib yangi innovatsiyalarni amaliyotga keng tatbiq etilishning yangi imkoniyatlari yuzaga keladi. Shuning uchun ham Yevropa davlatlaridagi tajribalarni o'rganish yangi innovatsiyalarni mamlakatimizga tatbiq etilishiga xizmat qiladi.

Jumladan, dunyo miqyosida oziq-ovqat muammolari va imkoniyatlarini, kelajakdagi iste'molchilar va oziq-ovqat kompaniyalarining istiqbollari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlardan biri Deloitte bo'lib, dunyo miqyosida oziq-ovqat muammolariga qaratilgan xalqaro tahlillar, tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni amalga oshiruvchi tashkilot hisoblanadi. Tashkilotni asosiy maqsadi asosan oziq-ovqat muammolarini o'rganish va ularga zamonaviy yechimlar ishlab chiqishdan iborat. Jumladan, tashkilot tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlariga qaraydigan bo'lsak, oziq-ovqat sanoatida sog'lom mahsulotlarni yanada barqaror ishlab chiqarish uchun innovatsiyalar zarurligi, iste'molchilar barqarorlik va salomatlikni xarid qilish doir bo'lgan qarorlarini tanlashi va yangi imkoniyatlar sifatida oziq-ovqat tizimini ekologik jihatdan sog'lom yo'lga qo'yish lozimligi kabi bir qator dolzarb masalalarni yechimlariga qaratilgan amaliy ishlar olib borilmoqda.

Xalqaro tashkilot tomonidan oziq-ovqat muammosini bartaraf etish maqsadida sanoat korxonalarini uchun oziq-ovqat sanoatining qiymat zanjiri ishlab chiqilgan bo'lib, quyidagi 1-rasmda oziq-ovqat sanoatining qiymat zanjiri ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu rasmdan ko'rinadiki, olib borilgan tadqiqotlar natijasida oziq-ovqat sanoati korxonalarini qiymat zanjiri ishlab chiqilgan bo'lib, bunda asosan oziq-ovqat kompaniyalaridan tortib, iste'molchilarga bo'lgan iqtisodiy yo'nalishlarni o'zaro bir tizimda faoliyat olib borishi nazarda tutilgan. Bundan maqsad, oziq-ovqat sanoati tarkibida qanday iqtisodiy yo'nalishlar o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borilishi va ularni birikishi natijasida yagona oziq-ovqat ta'minotini shakllanishi va qiymat zanjirini yuzaga kelishi ko'rsatib o'tilgan.



1-rasm. Oziq-ovqat sanoatining qiymat zanjiri⁸⁷

⁸⁷ The Future of Food Challenges & opportunities, 2022 Deloitte Belgium ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bu zanjirni yaxlit tizim sifatida tashkil etilishi oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish uchun yangi yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Chunki, hozirgi kunda oziq-ovqat sanoati tizimini yagona tizimga birlashtiradigan oziq-ovqat sanoatining qiymat zanjiri ishlab chiqilmagan. Bu qiymat zanjiri Yevropa mamlakatlarida keng qo'llanib kelinayotgan xalqaro tajriba sanaladi. Shuning uchun ham, ushbu 7 ta yo'nalishni o'zida birlashtirgan yagona qiymat zanjirini mamlakatimizdagi korxonalariga tatbiq etish amaliyotda yangi iqtisodiy raqobatbardosh korxonalarini shakllanishiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda Yevropa mamlakatlaridagi oziq-ovqat sanoati sohasidagi kompaniyalar barqaror oziq-ovqat ishlab chiqarish va chiqindilarni boshqarishga ustuvor ahamiyat bermoqda. Haqiqatan ham, ular barqaror va mahalliy manbalarni qo'llash, barqaror oziq-ovqat ishlab chiqarish, ekologik toza qadoqlash va chiqindilarni kamaytirish ustida ishlamoqda. Bundan maqsad sanoat korxonalaridagi raqobatbardoshlikni oshirish hisoblanadi.

Aksariyat kompaniyalarda ishlayotgan oziq-ovqat dasturlarining kelajagi asosan ekologik toza qadoqlash, chiqindilarni kamaytirish, barqaror va mahalliy manbalar va barqaror oziq-ovqat ishlab chiqarishga qaratilgan dastur asosida faoliyat olib borishmoqda. Quyida 1-jadvalda muallif tomonidan oziq-ovqat sanoati korxonalarida kelajakdagi istiqboli dasturlarning yo'nalishlari ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu yo'nalisharni amaliyotga tatbiq etish oziq-ovqat sanoati korxonalarida yangi imkoniyatlarni yuzaga kelishiga xizmat qiladi.

1-jadval

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida kelajakdagi istiqboli dasturlarning yo'nalishlari (foiz hisobida)⁸⁸

Dasturdagi yo'nalishlar	Fozi ko'rsatkichlari
Ekologik toza qadoqlash	74 foiz
Chiqindilarni kamaytirish	72 foiz
Barqaror va mahalliy manbalar ko'paytirish	63 foiz
Barqaror oziq-ovqat ishlab chiqarish	57 foiz
Sog'lom ovqatlanish	33 foiz
To'g'ridan-to'g'ri iste'molchiga tarqatish	24 foiz
O'simlikka asoslangan protein mahsulotlar	43 foiz
Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash	33 foiz
Blokcheyn tizimini rivojlantirish	26 foiz
Antik va qayta ishlanmagan donlarni kashf qilish	11 foiz

Ushbu jadvalda, oziq-ovqat sanoati korxonalarida kelajakdagi istiqboli dasturlarning 10 ta yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular foiz hisobida berilgan.

Ko'rsatib o'tilgan 10 ta yo'nalishlar asosan oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirishga va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu 10 ta yo'nalishlar kelajakdagi istiqboli yo'nalishlar ekanligi olib borilgan tadqiqotlar asosida tahlil qilib chiqilgan. Jadvalda eng yuqori foiz ko'rsatkichi ekologik toza qadoqlash yo'nalishi bo'lib, kelajakdagi oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish uchun ekologik toza mahsulotlarni qadoqlash darajasi ortib borishi muhim hisoblanganligi uchun ham yuqori foiz ko'rsatkichi qayd etilgan. Eng kam foiz ko'rsatkichi 11 foiz bo'lib, antik va qayta ishlanmagan donlarni kashf qilish yo'nalishi sifatida qayd etilgan. Ushbu yo'nalishda raqobatbardoshlikni oshirish murakkablikni talab etganligi uchun ham yuqori ko'rsatkich qayd etilmagan. Yuqoridagi 10 ta yo'nalishlar kelajakdagi oziq-ovqat sanoati korxonalarida uchraydigan muammolar bo'lib, ularni o'z vaqtida bartaraf etish va ularni ko'rsatkichlarini oshirib borish raqobatbardoshlikni oshishiga xizmat qiladi.

⁸⁸ The Future of Food Challenges & opportunities, 2022 Deloitte Belgium ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Xalqaro tashkilot tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida oziq-ovqat saonati korxonalarida kelajakdagi istiqbolini rivojlantirish uchun 12 ta turdagi manfaatdor tomonlar ro'yxati ishlab chiqilgan bo'lib, ularning barchasi oziq-ovqat sanoati korxonalarini kelajakdagi ishlab chiqarish va qayta ishlash imkoniyatlarini rivojlanishiga, raqobatbardoshligini oshirishga hamda faoliyatini takomillashishiga xizmat qiladi. Manfaatdor tomonlarning ro'yxati quyidagi 2-jadvalda to'liq keltirib o'tilgan.

2-jadval

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida kelajakdagi istiqbolini rivojlantiruvchi manfaatdor tomonlar⁸⁹

T/r.	Manfaatdor tomonlar ro'yxati
1	Hukumat
2	Raqobatchilar
3	Chakana sotuvchilar
4	Atrof-muhit / Hayvonlar uyushmalari
5	Inkubatorlar, startaplar
6	Distribyutorlar
7	Iste'molchilar uyushmalari
8	Yetkazib beruvchilar
9	Ishlab chiqaruvchilar
10	Akademik yoki tadqiqot markazlari
11	Investorlar
12	Boshqa manfaatdorlar

Ushbu jadvalda oziq-ovqat sanoati korxonalarida kelajakdagi istiqbolni rivojlantirishga qaratilgan 12 turdagi manfaatdor tashkilotlar ro'yxati ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ularni barchasi oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirishga va raqobatbardoshligini oshirishga hissa qo'shadi. Raqobatbardoshligini oshirishga jadvaldagi 12 ta turdagi manfaatdor tomonlar o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham xalqaro tashkilot tomonidan ushbu manfaatdor tashkilotlarining barchasini o'zaro ta'siri raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilganligi izohlab berilgan.

Yuqorida Yevropa davlatlaridagi oziq-ovqat sanoati sohasidagi bir qator dolzarb muammolarini ko'rib o'tdik. Oziq-ovqat sanoati sohasi doimo dolzarb soha sifatida qaraladi. Yevropa davlatlaridan tashqari boshqa rivojlangan davlatlarda ham oziq-ovqat sanoati sohasida bir qator dolzarb muammolar uchraydi. Ularni bartaraf etish raqobatbardoshlikni talab etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda xorijiy tajribalarni o'rganish zamon talabiga aylanib bormoqda. Xorijiy tajribalarni o'rganish sohani rivojlanishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizdagi oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun yuqorida Yevropa davlatlarida tadbiq etilgan yangi innovatsion tajribalarni amaliyotga keng tatbiq etish eng muhim innovatsion yechimlar hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Mamlakatimizdagi oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi kerak deb hisoblaymiz, jumladan:

- xalqaro GRI indeksining ro'yxatiga kirish;
- milliy raqobatbardoshlikni baqoqor rivojlantirish mezonlarini ishlab chiqish;

⁸⁹ The Future of Food Challenges & opportunities, 2022 Deloitte Belgium ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

- milliy reytingni o'tkazish vakolatini O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoati uyushmasiga berish;

- oziq-ovqat sanoati korxonalarida zamonaviy xorijiy tajribalarni kengaytirish;
- innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish amaliyotini takomillashtirish;
- xorijiy xamkorlar bilan iqtisodiy kelishuvga doir bo'lgan shartnomlarni rivojlantirish;
- oziq-ovqat sanoati korxonalarida kadrlar almashinuvi dasturlarini joriy etishdab iboratdir.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amaliyotga keng joriy etilishi natijasida, oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning yangi imkoniyatlarini rivojlanishiga va oziq-ovqat sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini oshishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/ Лумепамыра/ Reference:

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.*

Liu Y., Wang X. (2022) "Promoting Competitiveness of Green Brand of Agricultural Products Based on Agricultural Industry Cluster," *Wireless Communications and Mobile Computing*, vol. 2022, Article ID 7824638, 2 page.

Lukiewska K., Juchniewicz M. (2021) *Identification of the Relationships between Competitive Potential and Competitive Position of the Food Industry in the European Union. Sustainability*, 13, 4160. <https://doi.org/10.3390/su13084160>.

Бурханов А. (2018) "Саноат корхоналари молиявий барқарорлигини баҳолаш усули", "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, -с.3-4.

Крутиков К., Якунина М. (2011) *Региональный рынок мяса: конкурентоспособность предприятий и продукции. –М.: Ноосфера, - 160 с. Монография.*

Қобилов Ш. (2013) *Иқтисодиёт назарияси: Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, – 268 б.*

Орзуев П. (2011) *Реструктуризация как инструмент экономического роста предприятий пищевой промышленности Республики Таджикистан специальность 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством: Экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами (промышленность) диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук Душанбе.*

Салимов Б., Юсупов М. (2014) "Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг рақобатбардошлиги ва экспорт салоҳиятини ошириш омиллари", "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, -с. 4.

Ҳакимов З. (2022) "Саноат кластерлари самарадорлигини таъминловчи омиллар тизими", "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (*Economics and Innovative Technologies*) ilmiy elektron jurnali, 1/2022 январь-февраль №00057 219-220 стр.

Шодмонов Ш., Ғафуров У. (2005) *Иқтисодиёт назарияси (дарслик). - Т.: "Фан ва технология" нашриёти, -251 б.*